

# Tabrik nutqining xususiyati

Go'zal Erkinovna Xalikulova

**Annotatsiya:** Turli tadbirlarda - bayramlarda, yubileylarda, to'ylarda, tantanalarda, tug'ilgan kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqi hisoblanadi. Tabrik nutqi nutq atalgan shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko'rsatishga, ularni maqtashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu nutq ko'tarinki, tantanali ruhda so'zlanadi. Til boyligidan ham shunga mos foydalaniladi. Tabrik nutqida ham notiq turli dalillardan foydalanadi. Bu dalillar nutq atalgan shaxsning fazilatlarini ko'rsatishga qaratiladi. Notiq dalil sifatida uning tarjimai holidan, ijodidan, ishlaridan parchalar keltirishi mumkin. Tabrik nutqida xilma xil shakllardan, usullardan foydalansa bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** tabrik nutqi, til boyligi, ko'pchilik kayfiyati, tantanalar, bayramlar, tug'ilgan kun tabrigi, soz kuchi, shaxs va hodisalar

## Characteristics of congratulations

Gozal Erkinovna Khalikulova

**Abstract:** A speech delivered at various events - holidays, anniversaries, weddings, celebrations, birthdays - is a congratulatory speech. The congratulatory speech is aimed at showing the positive qualities of the persons and events mentioned in the speech, praising them. That is why this speech was delivered in an upbeat, solemn spirit. Accordingly, linguistic wealth is used. In a congratulatory speech, the speaker also uses various arguments. These reasonings are oriented towards showing the qualities of the person whose speech is called upon. As evidence, the speaker can cite excerpts from his biography, writings, works. In a congratulatory speech, various forms and techniques can be used.

**Keywords:** congratulatory speech, richness of language, mood of the crowd, celebrations, holidays, birthday greetings, power of speech, personality and events

Tabrik nutqi haqida gap ketganda ko'pchilikning kayfiyati ham boshqacha bo'ladi. Chunki, turli tadbirlarda - bayramlarda, yubileylarda, to'ylarda, tantanalarda, tug'ilgan kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqi hisoblanadi. Tabrik nutqi nutq atalgan shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko'rsatishga, ularni maqtashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu nutq ko'tarinki, tantanali ruhda so'zlanadi. Til boyligidan ham shunga mos foydalaniladi.

Tabrik nutqida ham notiq turli dalillardan foydalanadi. Bu dalillar nutq atalgan shaxsning fazilatlarini ko'rsatishga qaratiladi. Notiq dalil sifatida uning tarjimai holidan, ijodidan, ishlaridan parchalar keltirishi mumkin. Tabrik nutqida xilma xil shakllardan, usullardan foydalansa bo'ladi. Ammo haqiqatdan uzoqlashmaslik kerak. Tabriq nutqi hajm jihatdan ixcham, maxzmuniga boy bo'lib, tinglovchining vaqtini ko'p olmasligi lozim. Xullas, imkoniyatlar katta. Ammo nutq so'zlaganda me'yordan chetga chiqib ketmaslik kerak. Masalan, Respublikamizda bayram deb belgilangan sanalarda katta tadbirlar o'rkaziladi. Bulardan biri "Navro'z" xalq bayramidir. Bu bayram yurtimizning har go'shasida bo'lib o'tadi. Juda ko'p tabrik nutqlar xalqimizning yetakchi kishilari tomonidan aytiladi. Masalan, "*Navro'z - tabiat bayrami, borliqning yangilanishi, yasharish va odamlarni mehrlilik bo'lishga, rizq-ro'z yaratishga undovchi ezgulik, yilboshi ayyomidir. Ajdodlarimiz bir oy davom etadigan Navro'zni sog'inch va intiqlik bilan kutganlar. Ular Navro'zga qadar bog'-rog'larni, ariq-zovurlarni tozalaganlar, omoch-bo'yinturuqlar va aravalarni sozlab shay qilganlar, ko'chat va sara urug'larni hozirlaganlar. Navro'zga atab bug'doy undirishgan, ayollar mehr bilan sumalak pishirganlar, shirin orzu-tilak va niyatlar qilganlar. Yolg'iz qolgan ota-onalarga, yetim-yesirlarga, nogironlarga muruvvat ko'rsatganlar. Qabrlar ziyorat qilinib, o'tganlar ruhini shod etganlar.*

*Xalq sayllari o'tkazganlar. Ularda chavondoqlar bellashuvi, xalq laparlari, askiya, qiziqchilik, mas'harabozlik bayramga yana fayz kiritgan. Hurmatli do'stlar! Farzandlarimizning baxtli saodatli hayot kechirishi yo'lida, yaxshi yashash yo'lida, davlatimizning taraqqiyoti yo'lida, dasturxonimizning to'kin-sochin bo'lishi yo'lida tinimsiz mehnat qildingiz. Bugungi yutuqlarimizni qo'ldan boy bermay halol mehnat qilishdan xormang-tolmang aziz Vatanimiz jonkuyarlari. Navro'z ayyomingiz barchangizga muborak bo'lsin!*

Demak, notiqning ommabop nutqi va tili sodda, tushunarli bo'lishi talab qilinadi ekan, uning sifatini oshirishda ham ba'zi omillarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

*ona tili imkoniyatlaridan samarali foydalanish;  
nutqni til qoidalariga binoan to'g'ri tuzish;  
talaffuzning tiniqligiga e'tibor berish;  
ifodali so'z tanlash.*

*Nutq sintaktik qurilishining o'ziga xosligi;  
jumlalarining sodda va qisqaligi;  
sintaktik qurilishining nisbatan erkinligi;  
turli savollar qo'yish;  
nutqning dialog uslubi;  
undovlar, takrorlar, gap bo'laklari tartibini o'zgartirish (inversiya).*

Xulosa o‘rnida Kaykovusning “Qobusnoma” kitobida yozilgan ushbu nasihatni keltirish mumkin. *“Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganingda ma‘noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma‘noga ega ekanini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar. Sen shunday so‘zlaginki, xalqqa tushunarli bo‘lsin. So‘zni juda qimmatli deb bilgil, chunki so‘z xor narsa emas”*.

Har bir targ‘ibotchi, tashviqotchi, rahbar umuman omma oldiga chiquvchilar notiqlikning sir-asrorlarini o‘rganish kerak. Bu shubhasiz notiq nutqining tinglovchilarga tushunarli va ta’sirchan bo‘lishida katta ahamiya kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холиқулова, Г.Э. (2007). Саҳна нутқи. Тошкент-2007 й.
2. Холиқулова, Г.Э. People’s poet of uzbekistan mukhammad yusuf – singer of the native land and love. International conference. Pages 154-159.
3. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35 – бет.
4. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссёр узбекского театра и мастер по сценической речи. Эдебиет және өнер институты, Алматы. Вопросы литературы и искусства им. М.Ауэзова. 59-60 стр.
5. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35-бет.
6. ГЭ Халикулова. Актёрлар нутқда Навоий шеърляти. Театр, Тошкент. 10-11- бетлар.
7. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳнада тарихий мухит тасвири. Театр, Тошкент. 20-21- бетлар.
8. Гўзал Эркиновна Халикулова. Искусство речи в историко-поэтических спектаклях. / Искусство Узбекистана. История и современность. Материалы научно-практической конференции молодых ученых. Ташкент: Поколение нового века. Стр. 50-51.
9. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий театр ҳақида шахсий мулоҳазалар. Қалдирғоч, Тошкент. №1(4). 2 – бет.
10. Гўзал Эркиновна Халикулова. Вопросы сценической речи в интерпретации узбекской исторической драмы (80-90-е годы). Автореферат 2004 г. стр. 1 – 21.
11. ГЭ Халикулова. Саҳнани актёр безайди. Театр, Тошкент, 22-23-бетлар
12. Guzal Khalikulova. “Мирзо Улуғбек” тарихий драмасида тил масалалари. /Сб науч. тр. “Нафосат”. 144-147.
13. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи (тарихий драмалар талқинида). Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎзДСИ. 1 – 9 – бет.

14. Гўзал Эркиновна Халикулова. Husni ta'il - искусство силы. Журнал Театр, Ташкент. № 6. 14-15 стр.

15. Гўзал Эркиновна Халикулова. Чувство уважения. Журнал Калдиргоч, Ташкент. Стр 41.

16. Гўзал Эркиновна Халикулова. Гигиена и техника чтения книг. Журнал Калдиргоч, Ташкент. 21(42).

17. Гўзал Эркиновна Халикулова. Муסיкий ижрочиликда ёшларнинг фаоллигини ошириш ва уни ривожлантириш масалалари. Тошкент ТДМИ, (Тўплам).

18. Гўзал Эркиновна Халикулова. Санъат равнақи йўлида. Журнал Қалдирғоч, Тошкент. 2010/1.

19. Гўзал Эркиновна Халикулова. Хассос сўз устаси. “Мухсин Ҳамидов (Бадий сўз устаси)” номли монографияси учун мақола 2010. ЎзДСИ. 8 – бет.

20. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маънавий баркамоллик давр талаби. ЖизПИ, тўплами. 363 – бет.

21. Гўзал Эркиновна Халикулова. Ўзбекистон давлат санъат институтида кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш ва соҳани ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар. Ўзбекистон санъати ва маданиятида замон қаҳрамони образини яратиш муаммолари ва ечимлари” Тўплам. ЎзДСИ.

22. Гўзал Эркиновна Халикулова. Юрт тараққиёти, халқ фаровонлиги ҳамда баркамол авлодни тарбиялашда санъатнинг роли. Халқаро Симпозиум материаллари тўплами.

23. Гўзал Эркиновна Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Брянск, Сборник материалов VI Международного симпозиума. Стр. 219 – 225.

24. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий раҳбар аёлнинг профессионал нутқини оширишга доир. 2012 й. “Аёл – маънавият гулшани” ЖизПи., 4-Республика илмий-амалий конференцияси Тўплам.

25. Гўзал Эркиновна Халикулова. Актёрнинг сахна нутқи маҳоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. 2012/3/27. Глобаллашув жараёнида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари 2- республика конференцияси. Тошкент.

26. Гўзал Эркиновна Халикулова. Театрларда адабий тил масъулияти. 2013 й. Янги давр санъати: анъанавийлик ва трансформацион жараёнлар. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 82-84 бет.

27. Гўзал Эркиновна Халикулова. Спектакль яратишда сўз ва ҳаракат уйғунлиги масалалари. 2014. Тошкент.: “Мумтоз сўз”. 110-114 бетлар.

28. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна асарларида қаҳрамон характери яратиш масаллари. Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврўз. 112 – 117 бетлар.

29. Гўзал Эркиновна Халикулова. Институтда олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Театр// – Тошкент: 2014. (3). 9 -10 – бет.

30. Гўзал Эркиновна Халикулова. Сўз масъулиятини англаш ҳам санъат. Хуррият// – Тошкент. (43) 6-7 бетлар.